

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019 yil 1 fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 584 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 176 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3383 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28172 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


|                                                                                     | Tarmoqlar nomi                                     | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|-------------------|-------------------------|-----------------------|
|    | Qishloq va o'rmon xo'jaligi                        | 2012              | 1886                    | 18                    |
|    | Sanoat                                             | 5976              | 5685                    | 113                   |
|    | Qurilish                                           | 2618              | 2512                    | 79                    |
|    | Savdo                                              | 7613              | 7172                    | 270                   |
|    | Tashish va saqlash                                 | 1138              | 1105                    | 17                    |
|  | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 1392              | 1322                    | 25                    |
|  | Axborot va aloqa                                   | 574               | 539                     | 8                     |
|  | Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 671               | 650                     | 9                     |
|  | Boshqa turlari                                     | 7487              | 7301                    | 45                    |



### Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 fevral holatiga 29481 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 25,8 % savdo, 20,3 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,8 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 4,7% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,9 % axborot va aloqa hamda 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9736 ta), Asaka (2655 ta), Shahrihon (2110 ta) va Andijon (2055 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honabod shahri (466 ta), Ulug'nor (575 ta), Bo'z (724 ta) hamda Buloqboshi (745 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **28172** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3383 ta (13,6 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,5 % savdo, 20,2 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,9 % axborot va aloqa va 25,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9424 ta), Asaka (2622 ta), Andijon (1867 ta) va Shahrihon (1852 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honobod shahri (458 ta), Ulug'nor (572 ta), Bo'z (714 ta) hamda Buloqboshi (734 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.02.2017 y.

• 26471 ta

01.02.2018 y.

• 24789 ta

01.02.2019 y.


• 28172 ta



### Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvar oylada 584 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 176 taga yoki 43,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Andijon shahri (181 ta), Shahrixon (56 ta), Asaka (55 ta) va Paxtaobod (44 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ulug'nor (4 ta), Honabod shahri (12 ta) hamda Bo'z (15 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (270 ta), sanoat (113 ta), qurilish (79 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (25 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (9 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|                                                    | 01.02.2017y.    |            | 01.02.2018 y.   |            | 01.02.2019 y.   |            |
|----------------------------------------------------|-----------------|------------|-----------------|------------|-----------------|------------|
|                                                    | Korxonalar soni | ulushi, %  | Korxonalar soni | ulushi, %  | Korxonalar soni | ulushi, %  |
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b>                       | <b>287</b>      | <b>100</b> | <b>408</b>      | <b>100</b> | <b>584</b>      | <b>100</b> |
| Savdo                                              | 86              | 30,0       | 57              | 14,0       | 270             | 42,2       |
| Sanoat                                             | 82              | 28,6       | 95              | 23,3       | 113             | 19,3       |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi                        | 31              | 10,8       | 18              | 4,4        | 18              | 3,1        |
| Qurilish                                           | 21              | 7,3        | 50              | 12,3       | 79              | 13,5       |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 12              | 4,2        | 15              | 3,7        | 25              | 4,3        |
| Tashish va saqlash                                 | 12              | 4,2        | 33              | 8,1        | 17              | 2,9        |
| Axborot va aloqa                                   | 4               | 1,4        | 12              | 2,9        | 8               | 1,4        |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 3               | 1,0        | 17              | 4,2        | 9               | 1,5        |
| Boshqa turlari                                     | 36              | 12,5       | 111             | 27,2       | 45              | 7,7        |

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






## TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 fevral holatiga 23459 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6218 ta, oilaviy korxonalar – 578 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16074 ta va boshqalar 589 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 230 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 54 taga yoki 30,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 132 tasi qo'shma korxonalar, 98 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 91 ta (jamidagi ulushi 39,6 %), Andijon 19 ta (8,3 %), Shahrihon 17 ta (7,4 %) va Asaka tumanida 14 tani (6,1 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z 4 ta (1,7 %), Ulug'nor 4 ta (1,7 %), Jalaquduq 5 ta (2,2 %), Paxtaobod 5 ta (2,2 %) va Xo'jaobod tumanida 5 tani (2,2 %) tashkil etgan.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 161 tani (70,0 %), savdoda 23 tani (10,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17 tani (7,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 12 tani (5,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tani (0,4 %), tashish va saqlashda 2 tani (0,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 tani (3,0 %) va qurilishda 7 tani (3,0 %) tashkil qilgan.

Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 5 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, Koreya Respublikasi va Afg'oniston Respublikalarida - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta, savdo 1 ta faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



### Kichik korxona va mikrofirmalar soni. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 23323 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 8347 tasi (35,8 %) Andijon shahri, 2231 tasi (9,6 %) Asaka, 1578 tasi (6,8 %) Andijon hamda 1492 tasi (6,4 %) Shahrihon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23323 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7140 tasi (30,6 %) – savdo, 5631 tasi (24,1 %) - sanoat, 2508 tasi (10,7 %) - qurilish, 1857 tasi (8,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1314 tasi (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1084 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 574 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 533 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2682 tasi (11,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar oyida 564 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 56,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (175 ta), Shahrihon (56 ta), Asaka (54 ta) va Andijon (34 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (3 ta), Honobod shahri (12 ta) hamda Bo'z (13 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda 269 ta, sanoatda 113 ta, qurilishda 79 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 25 ta, tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 8 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 9 ta tashkil etilgan.

#### Oilaviy korxonalar soni




2019 yilning 1 fevral holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 608 tani tashkil etib, ulardan 578 tasi yoki 95,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yhatdan o'tganlarning soni 20,9 % ga hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 22,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,8 % yoki 259 tasi sanoat, 22,7 % yoki 131 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,6 % yoki 67 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,5 % yoki 55 tasi savdo, 1,7 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 7 tasi qurilish, 0,9 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 6,9 % yoki 40 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oylarida jami 35 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2018 yilda 96 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019 yilning yanvarda ushbu ko'rsatkich 35 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 61 taga tugatish kamaygan.*

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Agarda tugatilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak 6 tasi (17,1 %) qurilish, 4 tasi (11,4 %) savdo, 4 tasi (11,4 %) sanoat, 2 tasi (5,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 1 tasi (2,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (2,9 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (2,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 16 tasi (45,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi qurilish, sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|                                                       | 01.02.2018 yil     |                             | 01.02.2019 yil     |                             |                 |
|-------------------------------------------------------|--------------------|-----------------------------|--------------------|-----------------------------|-----------------|
|                                                       | Soni<br>(birlikda) | Jamiga<br>nisbatan,<br>% da | Soni<br>(birlikda) | Jamiga<br>nisbatan,<br>% da | Farqi,<br>(+,-) |
| <b>Jami</b>                                           | <b>96</b>          | <b>100</b>                  | <b>35</b>          | <b>100</b>                  | <b>-61</b>      |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |                    |                             |                    |                             |                 |
| qishloq, o'rmon va<br>baliqxo'jaligi                  | 15                 | 15,6                        | 2                  | 5,7                         | -13             |
| sanoat                                                | 21                 | 21,9                        | 4                  | 11,4                        | -17             |
| qurilish                                              | 4                  | 4,2                         | 6                  | 17,1                        | +2              |
| savdo                                                 | 37                 | 38,5                        | 4                  | 11,4                        | -33             |
| tashish va saqlash                                    | 2                  | 2,1                         | 1                  | 2,9                         | -1              |
| yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar          | 3                  | 3,1                         | 1                  | 2,9                         | -2              |
| axborot va aloqa                                      | 6                  | 6,3                         | 0                  | 0                           | -6              |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy<br>xizmatlar ko'rsatish | 2                  | 2,1                         | 1                  | 2,9                         | -1              |
| boshqa turlari                                        | 6                  | 6,3                         | 16                 | 45,7                        | +10             |

2019 yil yanvar oyida 20 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -72 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 6 tasi (30,0 %) qurilishda, 4 tasi (20,0%) savdo, 4 tasi (20,0 %) sanoat, 2 tasi (10,0 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 1 tasi (5,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (5,0 %) tashish va saqlashda, 1 tasi (5,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 1 tasi (5,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Honobod shahar-8 ta, Jalaquduq-10 ta, Qo'rg'ontepa -14 ta hamda Asaka-40 ta tumanlarida kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:74-228-29-74**